

DELPHI DASTURLASH MUHITIDA TUZILGAN DASTURDAN FOYDALANIB MICROSOFT WORD XUJJATLARIDA KO'P QATORLI MATNLI TEST VARIANTLARINI BILAN ISHLASH AFZALLIK VA KAMCHILIKLARI

Mahkamov Azizbek Shuhratbek o'g'li

Andijon davlat universiteti, Axborot texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi.

darsalgoritm@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12591035>

ANNOTATSIYA

Bu maqolada Microsoft Word xujjatlarida ko'p qatorlari matnli test savollarini aralashtirish va test variant tuzish masalasi ko'rib chiqiladi. Ko'p qatorli matnli test savollarini Delphi dasturlash muhitida tuzilgan dasturdan foydalanib test variantiga o'tkazish afzallik va kamchiliklari ko'rib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Microsoft Word, Delphi, matnli qatorlar.


Talabalar bilimini nazorat qilishda test savollaridan keng foydalaniladi. Bunday test savollari ko'pincha 4 variantdan birini tanlashga asoslanadi. Test savollari ko'p hollarda onlayn saytlarda matnli holatlarda kiritilishi talab qilinadi. Misol uchun moodle tizimida Aiken format hemis tizimida ham matnli format talab qilinadi. Biroq test savollari faqat onlayn ishlatish uchun emas bosib chiqarib foydalanish uchun ham ishlatiladi. Agar savollar bloknot kabi muharrirlarda tuzib chiqish zarur. Bundan tashqari savollar qaysi manbadan olingani necha qator ekanligi qattiy belgilangan bo'ladi. Lekin Microsoft Word dasturida quyidagi namuna asosida testlar shakllantirilsa test savollar bankini saqlashga qulay va Delphi dasturlash muhitida tuzilgan dasturdan foydalanib test variantiga o'tkazish imkoniyati ham bo'ladi. Har bir variantda savoldan so'ng to'g'ri javob berilgan.

Namuna savollar bankidan


№1. Fan bobi – 1; Dars – 2; Qiyinlik darajasi - 1;

Tasvirlarni sifatli nashr qilinishi uchun 300 dpi(DPI – 1 dyum kvadratdagi piksel yoki nuqtalar soni) zichlikda bo'lishi kerak.2.54 sm kvadratda 300 ta nuqta joylashadi.300 dpi zichlikdagi 1,27 sm kvadrat tasvirda nechta nuqta joylashadi? 1 dyum 2,54 sm.
150
300
200
100

Dastur interfeysi



1-rasm. Dastur interfeysi.



2-rasm.Savollar banki yuklangandan keying oyna

Yuqoridagi rasmda ko'rsatilgan maydonlar to'g'ri to'ldirilgandan so'ng Ma'lumotlarni tasdiqlash buyrug'i tanlanadi. Shundan so'ng tayyor aralashtirilgan test variantlarini tayyorlash uchun Testni tayyorlash tugmasi bosiladi. Natijada ushbu savollar asosida test variantlari tayyor holda bo'ladi.

Tayyor variantdan namuna

1-variant

1.Tasvirlarni sifatli nashr qilinishi uchun 300 dpi(DPI – 1 dyum kvadratdagi piksel yoki nuqtalar soni) zichlikda bo'lishi kerak.2.54 sm kvadratda 300 ta nuqta joylashadi.300 dpi zichlikdagi 1,27 sm kvadrat tasvirda nechta nuqta joylashadi.? 1 dyum 2,54 sm.

100

150

300

200

Muayyan shartlar

- Savollar bankida to'g'ri javob savoldan so'ng birinchi qatorda kelishi kerak.
- Savollar bo'sh qatorlarsiz rasmlar qatnashmagan tarzda tuziladi.

Afzalliklari

- Savollarni tayyorlash oson internet saytlarida ko'rsatiladigan xizmatlarga qaraganda.
- Ko'p qatorli savol va javoblarni qo'llab quvvatlaydi.
- Windows operatsion tizimi va ixtiyoriy MS Word versiyasi bo'lsa ham bas.

Kamchiligi

- Faqat Windows operatsion tizimi va ixtiyoriy MS Word versiyasi bo'lgan kompyuterda ishlaydi.
- MS Wordni APIsidan foydalanilgani bois ishlash tezligi kompyuter tezligi va MS Word tezligiga bog'liq.
- Rasmlar qatnashga savollar ishlatib bo'lmaydi.Faqat matnli testlar uchun ishlaydi. Berilgan shablona qattiy amal qilish zarur.

Ushbu dastur savollarni aralashtirish bilan bog'liq muammolarga qisman yechim bo'la oladi. Ko'pchilik pedagoglar tomonidan MS Wordda ishlash o'nikmalari mavjudligi bois dastur tuzishda shu jihatlarga etibor berildi.

References:

1. <https://lex.uz/docs/-6221502> - Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori
2. <https://hemis.uz/yoriqnoma/fan-resurs.php>– Hemis test formati haqida ma'lumot
3. <https://www.embarcadero.com/ru/product> s/delphi - Delphi muhiti haqida rasmiy ma'lumot



INNOVATIVE
ACADEMY